



TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA QOVUN PASHSHASI (*MYIOPARDALIS PARDALINA* BIGOT) NING BIOEKOLOGIYASI, ZARARI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

Xolmurodov Erkin Avazovich 

O'simliklar himoyasi va karantini kafedrası professori

Safarova Gulrux Meylievna 

O'simliklar himoyasi va karantini kafedrası assistenti

Xayrullayeva Sarvinoz Lutfullo qizi 

magistrant

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyatining tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilayotgan qovun navlari, qovun ekinining asosiy zararkunandasi qovun pashshasi (*Myiopardalis pardalina*) ning bioekologiyasi, zarari hamda unga qarshi kurash choraları tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qovun, ekin, urug', nav, harorat, qovun pashshasi, *Myiopardalis pardalina*, imago, tuxumi, lichinka, g'umbagi, kurash choralar.

Abstract. This article analyzes the melon varieties cultivated under the soil and climatic conditions of the Tashkent region, the bioecology and damage caused by the melon fly (*Myiopardalis pardalina*), which is the primary pest of melon crops, as well as control measures against it.

Keywords: Melon, crop, seed, variety, temperature, melon fly, *Myiopardalis pardalina*, imago, egg, larva, pupa, control measures.

Аннотация. В данной статье проанализированы сорта дыни, выращиваемые в почвенно-климатических условиях Ташкентской области, биоэкология и вредоносность главного вредителя бахчевых культур — дынной мухи (*Myiopardalis pardalina*), а также меры борьбы с ней.

Ключевые слова: дыня, культура, семена, сорт, температура, дынная муха, *Myiopardalis pardalina*, имаго, яйцо, личинка, куколка, меры борьбы.

KIRISH

Dunyo aholisining o'sib borishi jarayonida oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj, xususan sabzavotpoliz mahsulotlariga bo'lgan talab yildan-yilga tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jahonda sabzavot-poliz mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichi 1150 mln. tonna deb baholanmoqda. Dunyo bo'yicha keng tarqalgan sabzavot-poliz ekinlari turlarini ishlab chiqarish hajmida tarvuz 109,3 mln. tonna va





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

qovun 29,5 mln. tonnani tashkil etmoqda O'zbekiston, ayniqsa, poliz ekinlaridan qovunning betakror shirinligi, xushbo'yligi va shifobaxsh xususiyatlari bilan dunyoga tanilgan milliy qovun navlari bilan mashhurdir.

Biroq, keyingi yillarda global iqlim o'zgarishi, havo haroratining muntazam ko'tarilib borishi va vegetatsiya davridagi anomal issiqlar qishloq xo'jaligi ekinlari qatori poliz maydonlarida ham agroekologik muhitning o'zgarishiga olib keldi. Bunday sharoit ashaddiy va xavfli zararkunandalarning bioekologik xususiyatlari o'zgarishiga, ularning qishlab chiqish foizi ortishiga hamda mavsum davomida jadal ko'payib, yangi areallarni egallashiga zamin yaratmoqda. Ana shunday xalqaro va ichki karantin ahamiyatiga ega bo'lgan, polizchilik rivojiga eng katta iqtisodiy zarar yetkazayotgan omillardan biri qovun pashshasi (*Myiopardalis pardalina* Bigot) hisoblanadi. Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoitida qovun pashshasi (*Myiopardalis pardalina*) ning bioekologik xususiyatlarini, uning mahalliy navlarga yetkazayotgan zararini ilmiy asosda qayta tahlil qilish hamda unga qarshi zamonaviy, ekologik xavfsiz va yuqori samarali integratsiyalashgan kurash (IHM) tizimini ishlab chiqish bugungi kun agrar fani va amaliyoti oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Tajribamiz Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi kichik dala tajriba xo'jaligida olib borilib, u yerda qovunning Xandalak va Nifrit navlari ekildi. Urug'larini ekish uchun mutadil harorat 14 °S bo'lganda urug'lar tayyorlanib, saralanadi va urug' tozaligi birinchi kategoriyada 99%, ikkinchida 97%, uchinchi 92% bo'lgan, unuvchanligi bo'yicha birinchi sinf 90%, ikkinchi sinf 75% bo'lgan urug'lar ekildi.



Tadqiqotlar davomida bir nechta adabiyotlar o'rganilib, qovun o'simligi va mevalariga bir qancha zararli organizmlar ta'sir etishi o'rganildi. Ular orasida so'nggi paytlarda qovun pashshasi (*Myiopardalis pardalina* Bigot) ning zarari yuqori ma'lum bo'ldi.

Qovun pashshasi (*Myiopardalis pardalina* Bigot) ning morfologik tuzilishi. Tanasining uzunligi o'rtacha 5,5–6,5 mm, rangi och sariq yoki sarg'ish-to'q sariq rangda, ko'zlari juda katta, yashil-binafsha ranglarda tovlanib turadi. Ko'krakning orqa tomonida qora tukli nuqtalar va uchta yaqol ko'zga tashlanadigan to'q rangli



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

uzunasiga ketgan yo'llar bo'ladi. Orqa qalqoncha qismi to'q sariq rangda. Qanotlari shaffof. Urg'ochi pashshalarning qornining orqa uchida yaqol ko'rinib turadigan, nayzasimon, qattiq tuxum qo'ygichi bo'ladi. Erkak pashshalarda bunday tuzilish yo'q va ular hajman biroz kichikroq bo'ladi. Qovun pashshasining tuxumi juda mayda, uzunligi o'rtacha 1 mm atrofida bo'ladi. Shakli uzunchoq, ikki uchi biroz ingichkalashgan (sigarasimon) ko'rinishda, sutdek oq, yiltiroq bo'ladi. Lichinka chiqishdan oldin biroz xiralashadi. Lichinkasi Oq, och sariq yoki och pushti rangda, chuvalchangsimon, tanasining oldingi tomoni ingichka, orqa tomoni esa yo'g'on va to'mtoq bo'ladi, uzunligi 9–11 mm gacha yetadi. Lichinka 3 yoshgacha qovun ichida rivojlanadi so'ngra o'sishdan to'xtab, tuproqqa tushadi va o'sha yerda g'umbakka aylanadi. G'umbagi bochkasimon yoki kapsulasimon shaklda, uzunligi 5–6 mm, kengligi 2–2,5 mm atrofida, dastlab och sariq, vaqt o'tishi bilan to'q jigarrang yoki sariq-qo'ng'ir tusga kiradi. Qovun pashshasi qish mavsumida tuproq ostida 5–15 sm chuqurlikda g'umbaklik bosqichida qishlovga ketadi.

Bahorda tuproq harorati 15–18°C ga yetganda dastlabki pashshalar uchib chiqadi. Uchib chiqqan voyaga yetgan pashshalar (imago) dastlab qovun barglari va yosh mevalarning shirasi bilan oziqlanadi. Oziqlangandan 4–7 kun o'tgach, urgochi pashsha maxsus tuxum qo'ygichi yordamida yosh meva (yong'oqdek keladigan davri) po'stlog'i ostiga 1 tadan (ba'zan bir nechta) tuxum qo'yadi. Bitta urg'ochi pashsha hayoti davomida 100–150 tagacha tuxum qo'yish qobiliyatiga ega. Qovun pashshasi uchun optimal haroratda 25–30°C ga yetganda dan 3–4 kunda lichinkalar yorib chiqadi va meva ichiga qarab yo'l ochadi. Meva ichida 10–18 kun oziqlanib, to'liq rivojlangan lichinka meva po'stini teshib tuproqqa tushadi va g'umbakka aylanadi. Mavsum davomida 3–4 marta bo'g'in beradi.

O'rganishlar davomida qovun pashshasiga qarshi bir necha kurash choralari tavsiya etilib, ular;

Agrotexnik va mexanik choralar: Oktabr-noyabr oylarida yerni 28–30 sm chuqurlikda ag'darib shudgorlash, orqali, tuproq ostida qishlayotgan zararkunanda g'umbaklari yuzaga chiqib qoladi va qishki sovuq urishi yoki qushlar yemishi natijasida nobud bo'ladi.

Almashlab ekish: Poliz ekinlarini kamida 3–4 yil davomida bitta maydonga qayta ekmaslik, ularning o'rniga g'alla yoki dukkakli ekinlarni ekish.

Sanitariya tozalovi: Zararlangan, yerda chirib yotgan yosh qovunlarni tezkorlik bilan yig'ib olish va daladan tashqarida kamida 50 sm chuqurlikda ko'mib yuborish (bu ichidagi lichinkalarning tuproqqa o'tib g'umbakka aylanishini oldini oladi).

Biologik usul: Zararkunandalar uchun maxsus feromon tutqichlardan foydalanish ya'ni gektariga 20–30 tadan sariq rangli yopishqoq tuzoqlar o'rnatiladi. Bu pashshalarning uchib chiqish muddatini aniqlash (monitoring) va ularning sonini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kimyoviy kurash choralari (Eng mas'uliyatli bosqich): Adabiyotlar tahlilga ko'ra kimyoviy ishlov berish pashsha tuxum qo'yishga ulgurmasdan, ya'ni dalada



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

dastlabki uchishlar kuzatilganda (may oyi oxiri — iyun boshi) va qovun gullashdan chiqib, meva tugishni boshlaganda o'tkazilishi tavsiya etilgan.

XULOSA

Tadqiqotlar davomida iqlimning o'zgarib borayotganligi sababli, Toshkent viloyati sharoitida qovun pashshasi (*Myiopardalis pardalina* Bigot) mavsumda 3-4 marta avlod berishini hisobga olgan holda, zararkunandaga qarshi uyg'unlashgan kurash tizimini qo'llash yuqori samara beradi. Buning uchun:

- Kuzda: yerni 28–30 sm chuqurlikda shudgorlash va almashlab ekishga amal qilish;
- Bahorda: zararkunandalar tur tarkibi va miqdorini aniqlash uchun feromon tutqichlardan gektariga (20–30 ta/ga) quyish,
- Feromonlar yordamida qovun pashshaning uchish muddatini nazorat qilish;
- Eng mas'uliyatli pallada: qovun gullashdan chiqib, meva tugishni boshlagan ilk davrda pashsha tuxum qo'yishga ulgurmasdan kimyoviy ishlov berish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Baris A., Cobanog'lu S. Kavun Sinegi [*Myiopardalis pardalina* (Bigot, 1891) (Diptera: Tephritidae)] nin Farkli Kavun Cesitlerindeki Zarar Oranlarinin Belirlenmesi /Proceedings of the fourth plant protection congress of Turkey. – Kahramanmaras, 2011. – 14 p
2. To'reniyazov Ye.Sh. O'simliklerdi integratsiyali` qorig`lash. - No`kis: «Qaraqalpaqstan», 2014. – B. 5-6
3. Xo'jaev Sh.T. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari (III-nashr.). - Toshkent, 2013. - B. 225-282.
4. Щеголев В.Н. Дынная муха //Энтомология. – Москва: «Высшая школа», 1964. – С. 233-234
5. Yaxontov V.V. Qovun pashshasi. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi zararkunandalari. – Toshkent: «O'rta va oliy maktab», 1962. – B. 639 - 640 .